

**MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA
HUQUQIY TABIATI**

Eshpo'latov Behruz Shukurjon o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya:** mazkur tezisda ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi, uning nazariy asoslari, mohiyati va huquqiy tabiati chuqur tahlil qilinadi. Turli huquqshunos olimlarning qarashlari asosida mazkur institutning davlat hokimiyati faoliyatini tartibga solishdagi o'rni, fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi roli hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarning protsessual adolat, legitimlik va ijtimoiy ishonch bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** ma'muriy tartib-taomillar; ma'muriy huquq, protsessual adolat, legitimlik, davlat boshqaruvi, "due process", "Verwaltungsverfahren".*

Ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiati zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining eng muhim nazariy va amaliy institutlaridan biri sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Davlat boshqaruvi faoliyatining tobora murakkablashib borishi, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ijtimoiy hayotdagi rolining ortib borishi, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali ta'minlash zarurati ma'muriy tartib-taomillarni chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Ayniqsa, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish sharoitida davlat organlari faoliyatining faqat natijasi emas, balki ushbu natijaga erishish jarayonining ham qonuniy, adolatli va shaffof bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ma'muriy tartib-taomillar davlat boshqaruvining "ichki mexanizmi" sifatida namoyon bo'lib, nafaqat qaror qabul qilish jarayonini

tartibga soladi, balki ma'muriy organlar va manfaatdor shaxslar o'rtasidagi huquqiy muvozanatni ta'minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi turlicha talqin etilgan bo'lib, uning mohiyatini aniqlashda klassik va zamonaviy yondashuvlar mavjud. Nemis huquqshunoslik maktabining yirik vakili Otto Mayer ma'muriy huquqni davlat boshqaruvi faoliyatining huquqiy shakllari va usullarini belgilovchi tizim sifatida tavsiflar ekan, aynan protsessual elementlar ushbu faoliyatning markazida turishini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan har qanday harakat yoki qaror qat'iy belgilangan tartib asosida bo'lishi zarur, aks holda bu holat hokimiyatning ixtiyoriyligiga olib keladi. Bu yondashuv keyinchalik Walter Jellinek tomonidan rivojlantirilib, ma'muriy huquqning asosiy vazifasi davlat hokimiyatini huquq bilan bog'lashdan iborat ekanligi qayd etiladi. Jellinek nazariyasiga ko'ra, davlat organlari faoliyati faqat vakolatlar bilan emas, balki ularni amalga oshirish tartibi bilan ham cheklanadi [2].

Anglo-sakson huquq tizimida esa ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi asosan "due process of law" konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. A.V. Dicey tomonidan ilgari surilgan "rule of law" nazariyasida davlat organlari faoliyatining qonuniyligi va fuqarolarning tengligi asosiy tamoyil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu konsepsiya doirasida ma'muriy tartib-taomillar shaxsni davlat hokimiyati arbitrar harakatlaridan himoya qiluvchi vosita sifatida qaraladi [3]. Keyinchalik amerikalik huquqshunoslar, jumladan, Kenneth Culp Davis ma'muriy protseduralarni davlat boshqaruvida adolat va samaradorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida izohlaydi va ularni ma'muriy diskretsiyani cheklovchi asosiy instrument deb baholaydi [4].

Ma'muriy tartib-taomillar mohiyatini ochib berishda ularning ikki asosiy funksional yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, ular davlat hokimiyatining amalga oshirilishini huquqiy chegaralarga soladi. Davlat organlari, ayniqsa ijro etuvchi hokimiyat vakillari keng vakolatlarga ega bo'lishi mumkin, biroq ushbu vakolatlar qat'iy tartib-taomillar bilan chegaralanmasa, bu holat hokimiyat suiiste'moliga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu nuqtai nazardan, ma'muriy tartib-taomillar davlat hokimiyatini "huquq bilan bog'lovchi" vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, ular fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu fikr Friedrich Julius Stahl tomonidan ilgari surilgan Rechtsstaat nazariyasiga hamohang bo'lib, unda davlat faoliyati huquq bilan cheklanishi zarurligi asoslab beriladi. Tinglanish huquqi, asoslantirilgan qaror qabul qilish majburiyati, shikoyat qilish imkoniyati kabi elementlar aynan ma'muriy tartib-taomillar orqali ta'minlanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ma'muriy tartib-taomillarni faqatgina protsessual qoidalar majmui sifatida emas, balki kengroq — huquqiy kafolatlar tizimi sifatida talqin qilish tendensiyasi kuzatiladi. Sabino Cassese va Benedict Kingsbury [5]. tomonidan ishlab chiqilgan global ma'muriy huquq konsepsiyasida ma'muriy tartib-taomillar shaffoflik, hisobdorlik va ishtirokchilik tamoyillarini ta'minlovchi universal mexanizm sifatida ko'riladi. Ularning fikricha, zamonaviy davlat boshqaruvi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham ushbu prinsiplarga asoslanishi lozim.

Ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy tabiati masalasida ham turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ko'pchilik olimlar ushbu institutni protsessual huquqning tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Darhaqiqat, ma'muriy tartib-taomillar "qanday

tartibda amalga oshiriladi?” degan savolga javob beradi va shu jihatdan ular protsessual normalar sirasiga kiradi. Biroq ayrim olimlar, jumladan, nemis huquqshunoslari Hartmut Maurer [6] va Christian Waldhoff [7] ushbu institutning kompleks xarakterini ta’kidlab, unda moddiy va protsessual elementlar uyg’unlashganligini qayd etadi. Ularning fikricha, ma’muriy qaror qabul qilish jarayonida protsessual normalar moddiy huquqiy normalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni ajratib ko‘rish har doim ham to‘g‘ri emas.

Shuningdek, ma’muriy tartib-taomillar ommaviy huquqning muhim instituti sifatida davlat va shaxs o‘rtasidagi vertikal munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlarda davlat hokimiyat subyekti sifatida ustun mavqega ega bo‘ladi, biroq aynan tartib-taomillar ushbu ustunlikni muvozanatlashtiradi. Shu ma’noda, ma’muriy tartib-taomillar fuqarolar va davlat o‘rtasidagi “huquqiy dialog”ni ta’minlovchi vosita sifatida ham talqin qilinadi.

Mazkur institutning yana bir muhim jihati uning fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi rolidir. Zamonaviy huquqiy tizimlarda ma’muriy tartib-taomillar orqali tinglanish huquqi, qarorlarning asoslantirilgan bo‘lishi va ularni shikoyat qilish imkoniyati ta’minlanadi. Shu jihatdan, ma’muriy tartib-taomillar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy legitimlikni ta’minlovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tom R. Tyler o‘zining ilmiy tadqiqotlarida shuni asoslaydiki, insonlar qaror mazmunidan ko‘ra, qaror qabul qilish jarayonining adolatli bo‘lishiga ko‘proq e’tibor beradi. Bu esa ma’muriy tartib-taomillarning mohiyatida protsessual adolat muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [8].

Xorijiy tajriba tahlili ma’muriy tartib-taomillarning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. AQShda Administrative

Procedure Act [9] orqali ma'muriy organlar faoliyatining asosiy protsessual qoidalari belgilangan. Ushbu qonun ochiqlik, tinglanish huquqi va sud nazoratini ta'minlaydi. Germaniyada esa *Verwaltungsverfahrensgesetz* [10] ma'muriy tartib-taomillarning asosiy manbasi hisoblanadi. Ushbu qonun davlat organlari faoliyatining izchil va prognoz qilinadigan bo'lishini ta'minlaydi.

Fransiya huquq tizimida ma'muriy tartib-taomillar *Conseil d'État* amaliyoti orqali rivojlangan bo'lib, ma'muriy qarorlar ustidan sud nazorati muhim o'rin tutadi. Ushbu tizimda ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi ularning sud nazorati orqali legitimlashtirilishi bilan izohlanadi [11].

Ma'muriy tartib-taomillarning imperativ xarakterga ega ekanligi ularning huquqiy tabiatini belgilovchi muhim jihatlardan biridir. Ushbu normalar davlat organlari uchun majburiy bo'lib, ularni buzish yuridik javobgarlikka olib keladi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ma'muriy tartib-taomillarni haddan tashqari formalizatsiya qilish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi ham qayd etiladi. Chunki ortiqcha byurokratik tartiblar boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli hozirgi davrda "moslashuvchan ma'muriy protsedura" konsepsiyasi rivojlanib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar rivoji ma'muriy tartib-taomillar institutiga yangi talablarni qo'yimoqda. Elektron hukumat tizimlari, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlari, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonlari ma'muriy faoliyatning an'anaviy shakllarini o'zgartirmoqda. Bu esa o'z navbatida, protsessual kafolatlarning yangi shakllarini ishlab chiqishni talab etadi. Masalan, algoritmik qarorlarning tushuntiriluvchanligi va shaffofligi muammosi bugungi kunda eng dolzarb ilmiy masalalardan biri sifatida ko'rilmogda. Ushbu yo'nalishda

Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt bo'yicha huquqiy tashabbuslari ham muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ma'muriy tartib-taomillar zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida ko'p qirrali va murakkab huquqiy institut hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida davlat hokimiyatini cheklovchi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi va boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning huquqiy tabiati esa protsessual, ommaviy va imperativ elementlarning uyg'unlashuvi bilan tavsiflanadi. Shu bois, ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Otto Mayer. Deutsches Verwaltungsrecht.
2. Walter Jellinek. Allgemeine Staatslehre.
3. A. V. Dicey. Introduction to the Study of the Law of the Constitution.
4. Kenneth Culp Davis. Administrative Law Treatise.
5. Sabino Cassese, Benedict Kingsbury – <https://www.iilj.org/global-administrative-law/>.
6. Hartmut Maurer. Allgemeines Verwaltungsrecht.
7. Christian Waldhoff. Verwaltungsrecht.
8. Tom R. Tyler. Why People Obey the Law. – Princeton University Press, 2006.

